

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

identity—is invaluable. The new-method schools he founded, the newspapers and journals he published, and the articles and dramatic works he wrote continue to maintain their relevance today.

REFERENCES:

1. Karimov, I. A. High Spirituality is an Invincible Force. — Tashkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Qayumov, A. Lessons from the Jadids. — Tashkent: Ma’naviyat, 2003.
3. To‘raqulov, S. Mahmudkhoja Behbudiy: Life and Works. — Tashkent: Uzbekistan National Encyclopedia, 2010.
4. Saidov, A. Kh. Jadidism Movement: History, Stages, and Representatives. — Tashkent: “Science and Technology,” 2017.
5. Rahmonov, A. Mahmudkhoja Behbudiy and the Legacy of Jadidism. — Sharq Yulduzi Journal, 2020, No. 4.
6. G‘ulomov, A. History of Uzbek Press. — Tashkent: “Uzbekistan,” 2000.
7. Habibullaev, H. History of Uzbek Literature, Vol. 2. — Tashkent: “Fan,” 1978.
8. Mirsodiqov, I. Uzbek Drama Art and Behbudiy. — Theatre and Life, 2015, No. 3.
9. Literature of the National Awakening Period. Textbook. — Tashkent: O‘qituvchi, 2012.
10. Collection of Scientific Articles Dedicated to Mahmudkhoja Behbudiy. — Samarkand, 2020.

MA’RIFAT YO‘LIDA MILLATNI UYG‘OTGAN ULUG‘ SIYMO: MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY MEROSI VA YOSHLAR MA’NAVIYATI

Jumanova Matluba Ahrorovna

Toshkent Arxetiktura Qurilish Univerisiteti

Menejment fakulteti 1-bosqich talabasi

xurshidaxolmanova05@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada jadidchilik harakatining yetakchi vakillaridan biri bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodi, uning milliy uyg‘onishdagi o‘rni, ma’rifatparvarlik g‘oyalari va yoshlar ma’naviyatiga ta’siri yoritiladi. Behbudiy merosi bugungi kunda ham yosh avlod tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Maqolada uning asarlaridagi ma’naviy qadriyatlar tahlil qilinadi va zamonaviy yoshlar uchun namuna sifatida baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *Jadidchilik, ma’rifatparvarlik, yoshlar, ma’naviyat, meros, milliy uyg‘onish.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье рассматривается жизнь и творчество одного из ведущих представителей джадидизма — Махмудходжи Бехбуди. Освещается его роль в национальном пробуждении, просветительские идеи и влияние на духовность молодежи. Наследие Бехбуди сохраняет актуальность и сегодня, играя значимую роль в воспитании*

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

подрастающего поколения. В статье анализируются духовные ценности в его произведениях и оценивается их значение как примера для современной молодежи.

Ключевые слова: Джадидизм, просветительство, молодежь, духовность, наследие, национальное пробуждение.

ABSTRACT: This article explores the life and legacy of Mahmudkhoja Behbudi, a prominent figure in the Jadid movement. It highlights his role in the national awakening, his enlightenment ideas, and their influence on youth spirituality. Behbudi's intellectual heritage remains relevant today, playing a vital role in shaping the moral values of the younger generation. The paper analyzes the spiritual values in his works and evaluates them as a model for modern youth.

Keywords: Jadidism, enlightenment, youth, spirituality, legacy, national awakening.

Jadid (arabcha – yangi) – yangilik tarafdori, yangilik uchun kurashuvchi degan keng ma'nolarni anglatadi. XX asr boshlarida O'rta Osiyo xalqlari hayotida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar jarayonida jadidchilik harakati xalqni jaholatdan xalos etish, uni ma'rifat bilan uyg'otish g'oyalari bilan maydonga chiqdi. Ushbu davrda xalqimiz ma'naviy uyg'onishiga katta hissa qo'shgan ko'plab ma'rifatparvar bobolarimiz — Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Usmon Nosir, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy va Mahmudxo'ja Behbudiy — yashab o'tganlar. Bu harakatning eng faol va fidoyi namoyandalaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy bo'lib, u o'zining ibratli hayoti, ma'rifatparvarlik faoliyati va boy ilmiy-adabiy merosi bilan millat ma'naviyatini yuksaltirish yo'lida ulkan xizmat qilgan ulug' siymo hisoblanadi.

Behbudiy o'z davrida xalqni uyg'otish, zamonaviy ta'limni va tarbiyani yoyish, milliy ong va o'zlikni anglashni shakllantirishda beqiyos hissa qo'shgan buyuk jadid ma'rifatparvaridir. Uning “Padarkush”, “Maktablar to'g'risida”, “Risolai jadida” kabi asarlari nafaqat o'z zamonasida, balki bugungi kunda ham yosh avlodni ma'naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, Turkiston jadidlari islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni, taraqqiyot va rivojlanishga faqat tinchlik yo'li bilan, parlament orqali erishishni mo'ljallagan edilar. Biroq 1917-yildagi voqealar jarayoni, jadidchilik harakatining yirik nazariyotchisi Abdurauf Fitrat o'sha paytda yozganidek, “Rusiyada bosh ko'targan yangi bir balo – bolshevik balosi” kuchlar nisbatini butunlay o'zgartirib yubordi [Fitrat A. Siyosiy hollar. — 1917. Ziyouz.com. 20 b].

O'zbek xalqining boshqa bir fidoyi farzandi Mahmudxo'ja Behbudiy tomonidan o'rta tashlangan “Haq olinur, berilmas!” shiori butun millatning jangovar chaqirig'iga aylandi. Mustaqillik va ozodlik uchun, Turkistonda muxtoriyat o'rnatish uchun parlament yo'li orqali kurashgan Turkiston taraqqiyparvarlari va jadidlarining faoliyati oradan 100 yildan ortiq vaqt o'tgan bugungi kunda ham diqqatga sazovor hodisa sanaladi.[Rajabov Qahramon, Zamonov Akbar. “O'zbekiston tarixi (1917–1991-yillar)”. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. 352-bet.]

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi Behbudiy 1875-yilda Samarqandda tug‘ildi. O‘z davrining diniy va dunyoviy ilmlarini puxta egalladi. U dastlab Samarqand shahri yaqinidagi bir qishloqda jahon ilm-fani yutuqlaridan saboq berishga mo‘ljallangan yangi usul maktabini ochdi. Mahmudxo‘ja Behbudiy — jadidchilik harakatining yetakchi namoyandalaridan biridir, o‘zbek xalqining milliy uyg‘onishida asosiy rol o‘ynagan ma‘rifatparvar, jurnalist, dramaturg va jamoat arbobi sifatida tarixda munosib o‘rin egallagan buyuk adibdir. Uning faoliyati zamonaviy tafakkur, ma‘naviy yangilanish va ilm-fanga asoslangan jamiyat qurish g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liqdir [U. Jo‘rayev, Q. Usmonov, A. Nurqulov, G. Jo‘rayeva. Tarixdan hikoyalar. Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi, 2015. — 112 b].

Behbudiy millatni uyg‘otishning asosiy vositasi sifatida ta‘limni va tarbiyani ko‘rdi. U o‘z faoliyatida maktab islohoti, zamonaviy o‘quv dasturlari va bolalar tarbiyasi masalalariga alohida e‘tibor qaratdi. Uning tashabbusi bilan yangi usuldagi maktablar ochildi, bu esa o‘z navbatida xalq ongini yuksaltirishga xizmat qildi. Behbudiy yosh avlod tarbiyasida teatrning ham katta rol o‘ynashini to‘g‘ri baholay oldi. Shuning uchun sahna asari ham yozdi. Adibning “Padarkush” nomli sahna asari orqali u jaholat, nodonlik va zo‘ravonlikka qarshi keskin tanqidiy munosabat bildirgan. Bu asar o‘z davrida katta ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etgan bo‘lsa, bugungi kunda ham yoshlarni fikrlashga, tanqidiy yondashishga, ijtimoiy mas‘uliyatni anglashga da‘vat etmoqda. Mahmudxo‘ja Behbudiyning barcha ziyoliy qatlam uchun ibratli bir mashhur fikri bor:

«Zamon ilmi va fanidan bebahra xalq boshqalarga poymol bo‘lur»

[Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy risola. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022, — 144 bet].

Behbudiy, ayni paytda, yosh avlodni Vatan taraqqiyoti yo‘lida bir nechta xorijiy tilni o‘rganishga ham chaqirdi. Behbudiy faoliyatining yana bir muhim jihati – matbuot sohasidagi ishlari. U “Tarjimon”, “Shuhrat”, “Samarqand” kabi gazetalar bilan hamkorlik qilgan, 1912-yilda esa o‘zining “Oyina” nomli gazetasini chiqara boshlagan. Bu gazeta orqali u ma‘rifat, siyosat, axloq, tarix va din sohasidagi ilg‘or fikrlarni xalq orasida yoygan. “Oyina” yoshlar uchun ma‘naviy ozuqa, zamonaviy dunyoqarash manbai bo‘lib xizmat qilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilmiy-adabiy merosi bugungi yoshlar uchun ibrat maktabidir. Uning ma‘rifatga, adolatga, ilm-fanga bo‘lgan sadoqati hozirgi kunda ham dolzarbdir. Yosh avlodni tarbiyalashda Behbudiy asarlaridagi g‘oyalar – Vatanga muhabbat, millatga xizmat qilish, ilmga chanqoqlik — asosiy mezon bo‘lib xizmat qilishi lozim. [Karimov I. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. — Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.176-bet].

Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodi o‘zbek milliy uyg‘onish harakatining yorqin namunasidir. U xalqni jaholatdan xalos etish, ilm-ma‘rifat va zamonaviy tafakkur asosida tarbiyalash yo‘lida butun umrini bag‘ishlagan buyuk jadid ma‘rifatparvaridir. Behbudiy nafaqat jadid maktablarini tashkil etgan, balki o‘zining asarlari, publitsistikasi va sahna asarlari orqali xalq ongini uyg‘otishga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda yoshlar tarbiyasida Behbudiy merosidan o‘rinli va samarali foydalanish katta ahamiyatga ega. Uning g‘oyalari — ilmga chanqoqlik, ma‘naviy

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

poklik, millatga sadoqat — har bir yosh avlod uchun ibrat namunasi bo‘lib xizmat qilishi kerak. Mahmudxo‘ja Behbudiy — bu o‘zbek ma‘rifatining timsoli, yosh avlod uchun ma‘naviy yo‘lko‘rsatkichdir. Uning merosi unutilmas, g‘oyalari esa har doim dolzarb bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://n.ziyouz.com/portalhaqida/xarita/matbuot/jadidmatbuoti/abdurauf-fitrat-siyosiy-hollar-1917>. 2025-05-22
2. Rajabov Qahramon, Zamonov Akbar. “O‘zbekiston tarixi (1917–1991-yillar)”. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.352-bet. <https://library.uzfi.uz/ebooks/view?id=17372> (murojaat sanasi: 2025-05-22)
3. U. Jo‘rayev, Q. Usmonov, A. Nurqulov, G. Jo‘rayeva. Tarixdan hikoyalar. Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi, 2015. — 112 b
4. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy risola. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022, — 144 bet.
5. Karimov I. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. — Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.176-bet.
6. Fitrat A. Siyosiy hollar. — 1917. Ziyouz.com. 20 b.

DEVELOPING INDEPENDENT LEARNING IN TEACHING ENGLISH TO SENIOR STUDENTS IN SCHOOLS

Durdona Rashidova Umidjon kizi

Uzbekistan State World Languages University

Master’s Program, Faculty of Foreign Language and Literature, Student

Email address: durdonarashidova98@gmail.com

+998958191212 0009-0006-6568-5313

ANNOTATION: *Developing independent learning in teaching English to senior students is an essential aspect of modern education, fostering lifelong learning skills, critical thinking, and self-regulation. In an increasingly globalized and digital world, students must acquire the ability to learn autonomously, adapt to new challenges, and take responsibility for their academic growth. This study explores effective strategies to promote independent learning, including metacognitive approaches, blended learning, differentiated instruction, and technology-assisted teaching. By encouraging self-discipline and active participation, independent learning enhances students’ motivation, cognitive engagement, and language proficiency. The scientific novelty of this research lies in integrating structured self-learning techniques with digital and traditional resources, enabling students to develop personalized study strategies. It emphasizes the role of reflective learning, self-assessment, and teacher-guided scaffolding in fostering autonomy. The practical significance is demonstrated through*